



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 / ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА



INSURANCE

A collage of images including a globe, bar charts, gears, and a building facade with the university's name.



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECON-



“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash kafedrasи mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutualova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasи dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'lloshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalash borasida davlat tibbiy SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKİSTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyerberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKIOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashekhujaev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKIOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullahayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKİSTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48



YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalash borasida davlat tibbiy Sug'urtasining ahamiyatি

Ametova Fotimajon Rozmatovna

Bank-moliya akademiyasi doktoranti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Sug'urta ishi" kafedrasini katta o'qituvchisi

ffotima.ametova@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/265

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya muhtoj qatlarni ijtimoiy ta'minlash va sifatli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan chora-tadbirlarning biri sifatida tibbiy sug'urtaning tizimi o'rganilgan. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish borasida aholining ko'makka muhtoj qatlarni ijtimoiyashuvini ta'minlash yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy himoya, ijtimoiy kafolat, sifatli turmush tarzi, tibbiy sug'urta, iste'mol savati, tibbiy ko'rlik, ishsizlik.

Abstract: The article studies the system of medical insurance as one of the measures aimed at social security of the population in need of social protection and provision of quality social services in our country. It also presents conclusions and proposals on ensuring the socialization of the population in need of support by increasing the efficiency and targeting of the social protection system.

Keywords: Social protection, social security, lifestyle, health insurance, consumer basket, medical examination, unemployment.

Абстрактный: В статье рассматривается система медицинского страхования как одна из мер, направленных на социальное обеспечение населения, нуждающегося в социальной защите, и предоставление качественных социальных услуг в нашей стране. Приводятся выводы и предложения по обеспечению социализации населения, нуждающегося в поддержке, путем повышения эффективности и адресности системы социальной защиты.

Ключевые слова: Социальная защита, социальное обеспечение, образ жизни, медицинское страхование, потребительская корзина, медицинское обследование, безработица.

Kirish(Введение/ Introduction)

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biridir. So'nggi yillarda bu sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, ijtimoiy himoya muhtoj qatlarni qo'llab-quvvatlashsha alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda aholini ijtimoiy himoyalash, shu jumladan, aholiga sifatli tibbiy yordamlar ko'rsatish sohasida amalga oshirib kelinayotgan ishlarning barchasi mamlakatimiz Konstitutsiyasida kafolatlangan ijtimoiy ta'minot hamda ijtimoiy madad olish huuquni ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, sohada olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, aholi salomatligini saqlash borasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilayapti. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har bir ma'ruzalarida sifatli tibbiy xizmatga bo'lgan talabni qondirish niyoyatda zarurligini ta'kidlamoqda. Xususan, "O'zbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasida aks etgan asosiy g'oyalarning ikkinchi ustunida aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish muhim yo'naliishlardan biri ekanligi ta'kidlangan[1].

O'tgan davrda sohani yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirishga qaratilgan ko'plab farmon va qarorlar qabul qilinib, mamlakatimizda tibbiyot muassasalaridan tortib, kadrlar faoliyatigacha bo'lgan jarayon yangi tartibda o'zgarib, rivojlanish sari yuz tutdi. O'zbekistonda aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash tizimining xizmatlar qamrovini oshirishga qaratilgan kompleks choratdbirlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar tahilisi. (Обзор литературы / Literature review).

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'naliishlaridan biri bo'lgan davlat tibbiy sug'urta tizimi faoliyatini,

uning shakllanishini o'rganadigan bo'lsak, dastlab tarixga va xorijiy mamlakatlar tajribalariga tayanishimiz katta ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda tibbiy sug'urtaning mohiyati to'g'risida yagona, umumiyl qabul qilingan tariflar mavjud emas. Tarixiy jihatga nazar soladigan bo'lsak, ko'pgina olimlar, jumladan: Adam Smit, Paul Starr, Richard Saltman va bir qator rus va o'zbek olimlari davlat tibbiy sug'urtasini jamiyatda sog'liqni saqlash xizmatlariga teng va kafolatlangan kirishni ta'minlash vositasi deb hisoblashadi. Ularning ta'kidlashicha, tibbiy sug'urta:

- iqtisodiy jihatdan aholini moliyaviy risklardan himoya qiladi,
- tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilaydi,
- sog'liqni saqlash tizimi barqarorligini ta'minlaydi.

Rossiyalik iqtisodchilar A.B.Bloxin, L.I.Vasilsova, S.L.Leontevlar "sog'liqni sug'urtalashni fuqarolarning sog'liqni saqlash sohasida manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq sug'urta faoliyatini tashkily shakli sifatida ta'riflaydilar"[2]. Shuningdek, Axvelediani Yuliya Tambiyevna va Shaxov V'cheslav Viktorovichlar "tibbiy sug'urta sog'liqni saqlash sohasidagi aholi manfaatlarini ijtimoiy himoya qilishning shakli bo'lib, kasallik yoki baxtsiz hodisa yuz berganda, sog'lig'i yo'qolgan taqdirda sug'urtalovchi tomonidan sug'urta dasturiga kiritilgan tibbiy xizmatlar uchun qo'shimcha xarajatlarini qoplaydigan sug'urta to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni yuklaydigan sug'urta turlari majmuasi hisoblanadi"[3]. Yana bir rus iqtisodchisi Arxipov Aleksandr Petrovich tomonidan tibbiy sug'urtalashga iqtisodiy jihatdan atroficha yoritilgan quyidagi ta'rif berilgan: "tibbiy sug'urtalash sug'urtalanuvchining sug'urta badallari sug'urta dasturiga kiritilgan yoki shartnomada ko'zda utilgan tibbiy xizmatlar uchun tibbiy muassasada ko'rsatiladigan tibbiy, davolash-praktika yordami uchun qisman yoki to'liq qoplanishi miqdorida to'lash majburiyatlarini nazarda tutadi[4].

O'zbekistonning yosh olimalaridan M.N.Umurzakova o'zining ilmiy abdabiylotlarida tibbiy sug'urtani shunday ifodalaydi: "tibbiy sug'urta – aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida sog'liqni saqlash sohasidagi jamiyat a'zolari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sug'urta badallarining jamg'arilishi hisobiga sug'urta hodisasi ro'y berganda tibbiy xizmatlar ko'rsatishni kafolatlanishini ifodalaydi" [5].

Tadqiqot usullari (Методология/Methodology).

Maqolada O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashda davlat tibbiy sug'urta tizimining zamonaviy imkoniyatlari va rivojlanish muammolarini o'rganish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalанимди:

Tahliliy-uslubiy yondashuv – mavjud xalqaro va mahalliy tajribalar asosida ijtimoiy sug'urta tizimi faoliyati tahlil qilindi.

Deskriptiv (ta'rifiy) yondashuv – davlat tibbiy sug'urta tizimini joriy qilishda O'zbekistonda mavjud huquqiy-institusional muhit tavsiflandi.

Statistik tahlil – mamlakatimizda tashkil qilinishi boshlangan davlat tibbiy sug'urtasining hududlar kesimidagi qamrovi va natijalari tahlil qilindi.

PEST (Political, Economic, Social, Technological) tahlil — O'zbekistonda mavjud siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik omillar tahlili asosida o'rganish tavsiflandi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, sohada olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, aholi salomatligini saqlash borasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilyapti. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har bir ma'ruzalarida sifatlari tibbiy xizmatga bo'lgan talabni qondirish nihoyatda zarurligini ta'kidlamoqda. O'tgan davrda sohani yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirishga qaratilgan ko'plab farmon va qarorlar qabul qilinib, mamlakatimizda tibbiyot muassasalaridan tortib, kadrlar faoliyatiga bo'lgan jarayon yangi taribda o'zgarib, rivojlanish sari yuz tutdi. O'zbekistonda aholiga sifatlari tibbiy xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash tizimining xizmatlar qamrovini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish doirasida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish ishlari boshlangan. Bu tizimning asosiy maqsadi — aholining barcha qatlamlariga sifatlari va kafolatlangan tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlashdir.

Tahliliy metodlar orqali bu jarayonning samaradorligini, qiyinchiliklarini va imkoniyatlarini baholash mumkin.

Iqtisodiyotni isloh qilish davrida ijtimoiy ta'minotning jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslar faoliyati bilan bog'liq shakkllari rivoj topadi. Mehnatkashlarni ijtimoiy himoyalashni bir vaqtning o'zida amal qiladigan va bir-birini to'ldiruvchi to'rtta quyi tizimga ajratish mumkin. Bular: davlat ijtimoiy ta'minoti, davlat ijtimoiy sug'urtasi, jamoaviy ijtimoiy sug'urta va shaxsiy sug'urta.

Davlat ijtimoiy ta'minoti aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga pulli nafaqalar vositasida ko'rsatiladigan yordamdir. Soliqlar va boshqa budget tushumlari hisobiga moliyalanadigan bu yordam ularga belgilangan minimal turmush darajasini kafolatlaydi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi zarur turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy bo'lib, ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari, davlat tomonidan ajratiladigan dotatsiyalar hisobiga moliyalanadi.

Jamoaviy ijtimoiy sug'urta yetarli turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin, bunda ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari to'lov manbalari bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsiy sug'urta farovonlikning yuqori darajasini kafolatlaydi, u ixtiyoriy ravishda, fuqarolarning sug'urta badallari hisobiga amalga oshiriladi.

Birinchi ikki quyi tizimning ish tamoyili - birdamlik, uchinchisiniki subsidiyalash, to'rtinch, ya'ni shaxsiy sug'urtaniki esa mutanosiblik tamoyilidir. Birdamlik tamoyili yordamni muhtojlik darajasiga qarab, fuqaro to'lagan soliqlar va sug'urta badallari miqdorini hisobga olmasdan taqsimlanishini ko'zda tutadi. Subsidiyalash tamoyilida esa muhtojlik darajasiga qarab, ammo badallar miqdori va mos ravishda to'lovlar miqdorini hisobga olgan holda yordam ko'rsatiladi. Mutanosiblik tamoyili to'langan sug'urta badallariga proporsional miqdorda yordam ko'rsatilishini ko'zda tutadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyalashning sog'liqni muhofaza qilish munosabatidagi islohoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida amalga oshirilishi va bosqichma-bosqich joriy etiladigan davlat tibbiy sug'urtasiga o'tishni nazarda tutadi. Davlat tibbiy sug'urtasini joriy etilishi davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan hamda mustasnosiz barcha turdag'i tibbiy xizmatlar ko'rsatadigan davlat sog'liqni saqlash xizmati mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu xizmatning mavjud bo'lishi eng nochor aholi qatlarni ma'lum darajada muhofazalash imkonini beradi. Shu munosabat bilan, prezidentimiz Sh.Mirziyayev tashabbusi ostida 2024-yil 5-sentabrda "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [6] qabul qilindi. Qarorga ko'ra, davlat tibbiy sug'urtasi doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish va dori vositalarini taqdim etish davlat budgetiga to'lanayotgan soliqlar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda aholidan davlat tibbiy sug'urtasi uchun qo'shimcha to'lov undirilmasligi belgilab qo'yilgan.

Xalqaro tajribaga asoslangan bir qator dasturlar sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'in muassasalarida amalga oshirilmoqda. Xususan, aholiga kafolatlangan paket doirasida bepul tibbiy yordam va dori-darmonlar bilan ta'minlash choralar ko'rilmoxda. Shuningdek, surunkali kasalliklarni davolash uchun zarur bo'lgan ba'zasi dorilarni ambulator sharoitda bepul ta'minlash dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur «reimbursiya» deb ataladi. «Reimbursement» so'zi inglez tilidan olingan bo'lib, «xarajatlarni qoplash» degan ma'noni anglatadi va surunkali kasalliklarni davolash uchun shifokor tomonidan yozilgan dorilar xarajatlarini manzilli qoplashga tegishli. Quyidagi jadval asosida mamlakatimizda joriy qilinishi boshlangan davlat tibbiy sug'urtasi doirasida qilingan ishlari tahlilini ko'rshimiz mumkin bo'ldi:

Davlat tibbiy sug'urtasi dasturi doirasida qilingan ishlari tahlili¹

	Sirdaryo viloyati		Toshkent shahar	
	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2023-yil
<i>Bemorlar soni</i>	928	11 246	20 049	1 179
<i>Retseptorlar soni</i>	1 863	18 292	43 006	1 757
<i>Summa</i>	67 589 811	1 314 770 099	3 762 461 754	83 186 245
				506 921 459

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadi-ki, davlat tibbiy sug'urtasini joriy qilish bilan aholining kam daromadli qismini bepul dori-darmonlar va ko'rik xizmatlari bilan ta'minlash amalga oshirilgan. Ushbu tizim bosqichma-bosqich Sirdaryo viloyatida 2022-yilda va Toshkent shahrida 2023-yilda joriy qilingan.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashda davlat tibbiy sug'urta tizimini PEST (Political, Economic, Social, Technological) tahlili yordamida ko'rib chiqadigan bo'lsak quyidagilar kelib chiqadi:

P(Political) – Siyosiy omil: hukumatning sog'liqni saqlash tizimi islohoti bo'yicha qattiq nazorati mavjud.

E(Economic) – Iqtisodiy omil: aholining daromad darajasi pastligi sug'urta badallarining barqaror yig'ishini qiyinlashtiradi.

S(Social) – Ijtimoiy omil: aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojiyu yuqori, lekin ishonch darajasi o'rtaча.

T(Technological) – Texnologik omil: elektron sog'liqni saqlash tizimlari (e-health) joriy etilmoqda, lekin hali yetarli darajada emas.

Tibbiyot sohasiga sug'urta munosabatlarining kirib kelishi esa zamon talablaridan biri sanaladi. Rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillik tajribasi tibbiy sug'urta, shartnomaviy munosabatini tibbiyot sohasida barcha fuqarolarni ijtimoiy himoyalash imkonini beradigan tibbiy xizmatni tashkil etishning maqbul shakllaridan biri [7] ekanligidan dalolat beradi. Jahonda tibbiy sug'urta tizimining ulkan tajribasi to'plangan, biroq har bir mamlakat uni joriy etishda o'z tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlarini hisobga olishi lozim.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Xulosa o'rniда aytilish mumkinki, aholini ijtimoiy himoyalash davlatning aholiga normal hayot faoliyati uchun beradigan shart-sharoitlarini ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir. Ijtimoiy himoyalashning asosiy iste'molchilar O'zbekistonda mehnatga layoqatsiz fuqarolarni hisoblanadi. Samarali ijtimoiy himoya tizimining mavjudligi malakali xodim mehnatiga asoslanadigan zamonaviy iqtisodiyotning tarkibiy hususiyati hisoblanadi. Ijtimoiy himoyalashning asosiy tamoyili har bir individga yoki oilaga yordamni faqat ularning daromadi, farovonlik darajasi, ijtimoiy foydali mehnat sifati va davomiyligini baholash asosida ko'rsatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Блохин А.Б., Васильцова Л.И., Леонтьев С.Л. Экономика здравоохранения. – Екатеринбург: «Изд-во Урал. гос. экон. ун-та», 2000.В. 36.
3. Шахов В., Ахвledиани Ю. Страхование. 3-nashr. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2011. В. 140.
4. Архипов А.П. Страхование. – М.: «КНОРУС», 2012. В. 97.
5. Umurzaqova M.N. Ijtimoiy sug'urta. – Т.: “Bookmany Print”, 2023. В. 173.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ-311-sonli “Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7098084>
7. Kasimova G.A. (2019) Ijtimoiy sug'urta. Darslik. – Tashkent.: “IQTISOD-MOLIYA”, B.493.